

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI.
INKLYUZIV TA'LIMNING KAMCHILIKLARI VA AFZALLIKLARI
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI**

*Qo'qon davlat pedagogika institute,
Tarix fakulteti, milliy g'oya
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 2-bosqich talabalari
Ro'ziboyeva Dilnoza Ahtamovna.
Karimjonov Xushbaxt Mamurzoda.*

Anontatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Inklyuziv ta'lim tizimi. Inklyuziv ta'limning kamchiliklari va afzalliklari muammolari va ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

Annotation: In this article, the inclusive education system in the Republik of Uzbekistan. Disadvantages and advantages of inclusive education problems and their solutions are discussed.

Аннотация: В данной статье рассматривается система инклюзивного образования в Республике Узбекистан. Обсуждаются недостатки и преимущества проблем инклюзивного образования и пути их решения.

Kalit so'zlar: O'zbekiston respublikasida inklyuziv ta'lim tizimi, Inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'lim afzalliklari, inklyuziv ta'lim kamchiliklari, inklyuziv ta'lim muammolari, inklyuziv ta'lim prinsiplari.

Keywords: inclusive education system in the Republik of Uzbekistan, inclusive education, advantages of inclusive education, disadvantages of inclusive education, problems of inclusive education, principles of inclusive education.

Ключевые слова: система инклюзивного образования В Републике Узбекистан, инклюзивное образования, преимущества инклюзивного образования, недостатки инклюзивного образования, проблемы инклюзивного образования, принципы инклюзивного образования.

Kirish.

Inklyuziv ta'lim ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi. Inklyuziv ta'lim bu nogiron va maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishini ifodalovchi ta'lim shaklidir.

Asosiy qism.

Inklyuziv ta'lim muassalari birinchi bo'lib Rossiyada 1980-1990-yillarda paydo bo'lgan. Inklyuziv ta'lim maxsus yordamga muhtoj bo'lgan turli toifadagi anomalligi bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning birga ta'lim tarbiya olishlari imkonini beradi. Bu ta'lim tizimi maxsus yordamga muxtoj bolalarni muloqotga kirishishida, o'z tengdoshlari bilan fikr almashinishida ota-onalarga amaliy yordam berishda, moddiy tomondan qiynalayotgan oilalarga har tomonlama qulaylik olib keldi.

1990-yilda Djonpiyeyen Tailandda muhim konferensiya o'tkazdi va bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" shiorini hammada shakllantirish uchun qaratilgan bo'lib bu konferensiyada 155-ta davlat vakillari va 150-dan ortiq nodavlat tashkilotlari qo'shildilar. Tahlil qilinganda 10-15 foiz bolalar maxsus ta'limga muhtoj ekanligi aniqlandi. Anomallikning ham turli toifalari bor ayrim maxsus yordamga muhtoj bolalar birovning ko'magisiz harakatlana olmasligi, o'z ehtiyojlarini qondira olmasligi mumkin. Shuning uchun ham maxsus maktab internetlar faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim tizimiga oid prezidentimiz "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish Chora tadbirlari to'g'risida" gi 2020-yil 13-oktabrda qaror qabul qilindi. Qaror bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Qarorga muvofiq 2021-2022-o'quv yilida tajriba sinov tariqasida: shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinadi.

Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachada yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiq tayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari turgan gap. Demak, Zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan, tashqari sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiqlar hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak. O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Nogiron yoki nuqsonli bolalarni maxsus uskunalar bilan ta'minlangan oddiy maktabda umumiy ma'lumot olishlariga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar audio kitoblar bilan ta'minlanishi kerak.

Inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. O'rnatish va asboblardan maxsus bolalarga mos bo'lishi kerak, va boshqa talabalar va o'qituvchilar har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini tushunishlari va qabul qilishi kerak.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari Nimada?

Ta'limning boshqa shakllari singari inklyuziv ta'lim ham afzalliklari va kamchiliklariga ega. Ushbu turdagi mashg'ulotning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Odamlarning keng doirasi, jumladan, sog'ligi cheklanmagan odamlar, ya'ni oddiy odamlar bilan o'zaro munosabatlar. Inklyuziv ta'lim paydo bo'lishidan oldin, alohida ehtiyojga ega odamlar o'rtasida bunday muloqot qilish imkoniyati deyarli mavjud emas edi. Turli xil nogiron kishilarning aksariyati uchun ijtimoiy doiralar reabilitatsiya markazlariga yaqin qarindoshlari va boshqa tashrif buyuruvchilar bilan cheklangan. Boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo'shilish qobiliyati. Maxsus ehtiyojga ega bo'lgan odamlar, shuningdek, ko'rgazmalar, muzeylar, teatr tomoshalari kabi madaniy tadbirlarga tashrif buyurishlari mumkin. Biroq ular o'zlarining ehtiyojlariga moslashtirgan, to'siqsiz muhit deb nomlangan muhit bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'limning kamchiliklari nimada?

Maxsus ehtiyojli bolalarni kuzatib borish uchun tayyorlangan malakali kadrlar - o'qituvchilar, psixologlar, defektologlar, logopedlar, yetishmasligi. O'qituvchilar tarkibi ko'pincha bolalarga nisbatan yumshoq munosabatda bo'lishadi, shuning uchun ularning bilimlarini baholash ob'ektiv emas. Milli g'oya dasturi ko'pincha ba'zi o'quvchilarni ma'lum bir bosqichda o'qishni davom ettirishiga to'siqlik qiladi. Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari ko'pincha ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, bolalar faqat o'rta ma'lumot olishadi va o'qishni davom ettira olmaydilar. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun nafaqat inklyuziv balki umumtalim maktablari ham zarur.

Inklyuziv ta'limning muammolari?

Inklyuziv tamoyillar zamonaviy jamiyatda to'g'ri va zarur bo'lishiga qaramay, bunday dasturni amalga oshirish oson emas. Buni bir nechta sabablari bor.

Ushbu yondashuv qo'llanilmagan paytda qurilgan bolalar bog'chalari va maktablarining yaroqsiz infratuzilmasi; maktablarning yaroqsiz infratuzilmasi; nogiron bolalar o'qitilmaydigan deb hisoblanishi mumkin; o'qituvchilar tarkibining bunday bolalar bilan ishlash bo'yicha malakasi yetarli emasligi; hamma ota-onalar ham bolani odiiy jamiyat bilan tanishtirishga tayyor emaslar.

Ichki hayotda inklyuziyanito'liq amalga oshirishda bir qator ob'ektiv va sub'ektiv to'siqlar mavjud.

Birinchi dan-an'anaviy o'qitish uslublariga o'rganib qolgan o'qituvchilar o'z tamoyillarini o'zgartirishga tayyor emaslar.

Ikkinchi dan-sog'lom bolalarning konservativ ota-onalari ko'pincha nogiron bolalarga o'z farzandlari bilan o'qishlariga qarshi.

Uchinchidan-moliyaviy masala o'ta dolzarb: aksariyat maktablarda tegishli jihozlar mavjud emas va kerakli materiallarni, ham o'quv, ham uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olish imkoniyati yo'q.

Inklyuziv yondashuv-bu ruhiy va jismoniy xususiyatlaridan qat'iy nazar jamiyatning barcha a'zolari uchun to'g'ri sharoitlarni yaratish imkoniyatidir. Ammo innovatsion yondashuvning barcha imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak.

Inklyuziv ta'limning prinsiplari.

1. Insonning qadr qimmatini, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir-biriga muhtoj.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muhtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Turli xildagi sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan nuqsonli bo'lib qolgan bolalarni jamiyatdan alohida e'tiborsiz holda tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bunday bolalar nuqsonliligi sabablari imkoniyatlari chegaralanib qolganligi oqibatida korreksion yordamga muhtoj.

Nogiron bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ish olib borish, ijtimoiy jamiyatga adaptatsiyalash, imkoniyatlaridan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi".

Inklyuziv ta'limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan "nogiron" degan tamg'ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlilikni ta'minlash, jamiyatga to'laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlardan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o'qitishdan iborat.

Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda inklyuziv ta'limni joriy qilishda ko'plab muammolar va to'siqlar talaygina. Muammolarni va to'siqlarni hal etish zaruriyatdir. Chunki jamiyatimizda yashayotgan har bir maxsus yordamga muhtoj bola bizning ham farzandimiz. Alohida ehtiyojli bolalarga "Ular kimning farzandi?" deya

savol berish o'ransizdir. Zero, ularning kamoloti bizning ham kamolotimiz, ularning fojeasi bizning ham fojeamizdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish har bir fuqarolarning ijtimoiy jihatdan teng ekanliklarini yana bir bor o'zida aks ettiradi. Inklyuziv ta'limning zamirida INSON QADRI atalmish buyuk tuyg'u yotadi. Zero prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Inson qadri barcha narsadan ulug'".

Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz har kuni yurgan yo'llardan ayrim bolalar yura olmaydi, biz har kuni ko'rgan go'zallikni, atrof olamdagi voqea-hodisalarni eshita olmaydi, ko'ra olmaydi, chunki uning harakatlanishi falajlik oqibatida chegaralanib qolgan, uning ko'zlari ojiz, quloqlari eshitmaydi. Ammo bu bola ham har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetishi, hamma qatori jamiki go'zalliklardan bahra olib yashashi mumkin edi, biroq salbiy omillar ta'sirida u bundan bebahra qolgan.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2020-2025-yillar O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi.
3. U.J.Mansurov. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: Inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar.